

# YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 3 (1064), 2024-yil 5-yanvar, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## SUVDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 4-yanvar kuni qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan taktiklar taqdimoti bilan tanishdi.

Suv tanqisligi tobora kuchayayotgan bugungi zamonda mamlakatimizda uni qadrlash, tejab foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda 472 ming gektar yer tomchilatib va 48 ming gektari yomg'irlatib sug'orishga o'tkazildi, 97 ming gektarda boshqa suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi. 649 ming gektar yer lazerli tekislandi.

Shunday chora-tadbirlar natijasida birgina 2023-yilda 2 milliard kub metr suv tejaldi. Bu Buxoro viloyatining bir yillik suv sarfiga tengdir.

Ushbu ishlar ko'lamini yanada kengaytirish harakatlariga tizimdagi ayrim muammolar xalal bermoqda. Masalan, tuman irrigatsiya bo'limlarining vakolatlari xo'jaliklararo kanallar bilan cheklangan. Suv yetkazish xizmatlari samarali moliyalashtirilmagan. Tejamkor uskunalar o'rnatish uchun tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar fermerlarni o'ziga jalb qilmaydi.

Shu bois, davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan, quyi bo'g'ida suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha taktiklar ishlab chiqildi.

Unga ko'ra, tuman irrigatsiya bo'limlari va maxsus xizmatlar negizida "Suv yetkazib berish xizmatlari" davlat muassasalari tashkil qilinadi. Ular ekskavator va boshqa texnikalar bilan ta'minlanadi. Bu sug'orish tarmoqlariga xizmat ko'rsatish ishlarini ikki barobarga arzonlashtiradi.

Shuningdek, barcha sug'orish tarmoqlarini xatlovdan o'tkazish, egalari bo'yicha birlashtirish hamda har birining yagona identifikatsion raqamini ishlab chiqish ko'zda tutilmoqda.

Ma'lumki, joriy yildan dalagacha yetkazilgan 1 kub metr suv uchun soliq 100 so'm etib belgilandi. Ko'pchilikning ongida o'rnatilgan "suv — tekin" degan tushunchani o'zgartirish vaqti keldi.

Suv iste'molchilari bilan hisob-kitobni shu tamoyil asosida yo'lga qo'yish taklif qilinmoqda. Jumladan, 2025-yildan boshlab, dalada suv hisoblagich o'rnatgan va tejamkor texnologiyalarni qo'llaydigan fermerlar uchun soliq koeffitsiyenti kamaytiriladi. Aksincha holatlarda esa oshiriladi. Shu bilan birga, suv yetkazib berish uchun to'lovlar bekor qilinadi.

Yig'ilishda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantirish choralari ham ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, buning uchun imtiyozli kredit liniyasi tashkil qilinmoqda. Xususan, kreditlar 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yil muddatga 14 foizlik stavkada ajratiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi loyihalarni uchun esa 10 foiz bo'ladi. Kredit olishda fermerlardan mol-mulk garovi talab qilinmaydi.

Shuningdek, kreditlar "onlayn" ajratilishi yo'lga qo'yilmoqda. Bu borada Agrobank tomonidan "Suvkredit.uz" tizimi ishlab chiqilgan. Yana bir muhim tomoni, endi pudratchilarga suv tejovchi texnologiyalarni faqat ishchi loyiha asosida qurish, o'rnatilgan tizimlarga kamida 2 yillik kafolat berish va kamida 5 yillik servis xizmati ko'rsatish kabi qo'shimcha majburiyatlar yuklatilmoqda. Bu talablarni bajarmaydigan pudratchilar tizimga kiritilmaydi.

Ma'lumki, bugungi kunda suv tejovchi tizim joriy qilingan har bir gektar uchun 8 million so'm miqdorida subsidiya beriladi. Shu paytgacha bu mablag'ning 50 foizi texnologiya o'rnatilgan yilda, qolgan kelgusi yili uning ishlatilishiga qaratilgan edi. Endi bu borada ham qulaylik yaratilib, barcha subsidiya mablag'larini o'sha yilning o'zida to'lab berish belgilanmoqda.

Davlatimiz rahbari bu taktikalarni ma'qullab, so'nggi iste'molchigacha bo'lgan tizimni to'g'ri yo'lga qo'yish, suvni tejab ishlarini kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA

## Taraqqiyot yo'li

# G'oyalalar iqtisodiyoti

## UNING ODAMLAR HAYOTIGA TA'SIRI

Yurtimizda inson qadrini ulug'lash, aholi manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiyotni erkinlashtirish va jahon bozorlariga dadil kirib borish bo'yicha salmoqli yutuqlarga erishdik. Jumladan, inson huquqlarini amalda eng oliy qadriyat darajasida ta'minlash maqsadida majburiy mehnat va bolalar mehnatiga to'liq barham berildi. So'z va e'tiqod erkinligi, gender tenglikni ta'minlash bo'yicha erishgan amaliy natijalarimiz e'tirof etilmoqda. Ilk bor kambag'allik mavjudligi tan olindi va uni qisqartirish uchun samarali tizim yaratildi. Bu tizim bilan davlat ko'magiga muhtoj oilalar to'liq qamrab olindi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, sud mustaqilligi va odil sudlov institutini mustahkamlash, xususiy mulk daxsizligini kafolatlash borasidagi islohotlar qat'iy davom ettirilyapti. Aholi va tadbirkorlar manfaatlarini ishonchli himoya qiladigan tizim — ma'muriy sudlar tashkil etildi. Jamiyatda korruptsiyaga murosasizlik muhitini shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Xorijiy investor va hamkorlarimiz uzoq kutgan yengillik va imkoniyatlar iqtisodiy islohotlarda o'z aksini topmoqda. Valyuta tizimi erkinlashtirilgani, tashqi bozorlarga chiqish bo'yicha to'siqlar bartaraf etilgani, 7 mingdan ziyod xom-ashyo va tovarga bojxona bojlari bekor qilingani natijasida tashqi savdo aylanmasi ikki karra oshdi. Shu bilan birga,

soliq yuki qariyb 2 barobar kamaydi, soliq ma'muriyatligi soddalashtirildi. Islohotlarga ishonch ortgani tufayli yillik xorijiy sarmoya hajmi 2017-yildagiga nisbatan 3 barobar ko'paydi. Qulay biznes muhiti yaratilgani natijasida tadbirkorlar soni 4 barobar oshdi.

Davomi 3-betda

## Armija va xalq — bir tan-u bir jon



## OSOYISHTALIGIMIZNING ISHONCHLI VA MUSTAHKAM QALQONI

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari mamlakat hududiy yaxlitligi, xalqimizning osuda hayotini ta'minlash, ayniqsa, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda g'oyat muhim o'rin tutadi. Keyingi yillarda milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan kuchga, el-yurtimiz tayanchi va suyanchiga aylandi.

Davomi 2-betda

## BIZ VA DUNYO

### O'ZBEKISTONGA XORIJ SARMOYASINI JALB ETISH VA TADBIRKORLIK UCHUN KENG IMKONIYATLAR YARATISH YANADA FAOLLASHADI

Xorijiy OAV O'zbekiston Prezidentining Yangi yil tabrigi haqida

Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga yo'llagan Yangi yil bayrami tabrigida 2024-yil mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qilindi. Bu yurtimizda yoshlarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlar ko'lamini yanada kengaytirishi tabiiy.

O'zbekistonning 2024-yilda belgilangan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari nafaqat yurtimiz vakillari, balki xorijiy ekspertlar hamjamiyati va yetakchi ommaviy axborot vositalari tomonidan ham olqishlanmoqda.

Davomi 2-betda

## Konsalting xizmati

### MAVJUD VAZIYATDA MAQBUL YECHIM QANDAY TOPILADI?

"Maslahat" so'zi biror ishni qanday qilish kerakligi haqida yo'l-yo'riq tarzidagi mulohaza, tavsiya, taklif, fikr olish kabi ma'nolarni bildiradi. Muqaddas kitoblarda ham barcha ishda maslahat — kengash bilan ish tutishga undovchi jumlar bor.



Xususan, Imom Buxoriyning "Adab ul-mufrad" hadislar to'plamida maslahat bilan ish yuritishning nechog'liq ulug' va hayotda qanchalar katta ahamiyatga ega ekani e'tiborga olinib, qaysi bir qavm maslahat bilan ish tutsa, albatta, hidoyat topishiga urg'u beriladi. Amir Temurning "Tuzuklar"ida ham davlat ishlarining o'ndan to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat bilan

bajo etilishi alohida e'tirof etilgan. Demochi bo'lganimiz, azaldan oqil kishilar biror ishga qo'l urmoqchi bo'lsa, albatta, ilmi, yoshi ulug', hayotiy tajribasi katta, aqli raso va fikri tiniq kishilar maslahatini olib, shundan so'ng bajarishga kirishgan. Shu bois, xalqimiz orasida "Maslahatli to'y tarqamas" degan mashhur naql hali-hanuz keng qo'llanadi.

Davomi 4-betda

## QAROR VA IJRO

### OLIV TA'LIM TIZIMIDA ERISHILAYOTGAN NATIJALAR

zamirida yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning muhim o'rni bor

5

## 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili

### MAS'ULIYAT, HAMNAFASLIK VA RAG'BAT

TASHABBUSKOR YOSHLARNI YURTIMIZ DRAYVERIGA AYLANTIRADI



Bugun dunyo sahnasida Yangi O'zbekiston degan nom yangramoqda. U o'zining bor bo'y-bastini intellektual yoshlar timsolida ko'rsatyapti. Davlatimiz tom ma'noda taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqayotganiga guvohimiz. Keng ko'lamli islohot va yangilanishlar nafaqat mamlakatimiz, balki mintaqamizda ham hamkorlik hamda barqarorlik ruhiyati shakllanishiga sabab bo'lyapti.

Bunday o'zgarish va yangilanishlar davrida yoshlar ma'naviyati, dunyoqarashi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, kayfiyatini o'rganish, orzu-umidlariga quvvat berish davlat siyosatidagi muhim vazifalar qatoriga kiradi. Zero, yosh avlod har qanday mamlakat istiqbolini belgilaydigan ulkan strategik qudratdir. Shu bois, O'zbekistondagi yoshlar siyosati ko'plab davlatlar uchun andaza bo'lmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Davomi 5-betda

## MUNOSABAT

### IKKINCHI USTUN

yoxud siyosatning ma'naviy qiyofasi

6









